

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**



“TASDIQLAYMAN”
Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universiteti
rektori
I. Madjidov
«10» 07 2026-yil

**IKKINCHI VA UNDAN KEYINGI OLIV TA'LIM
BO'YICHA BAKALAVRIAT TA'LIM YO'NALISHLARI
UCHUN UMUMIY PSIXOLOGIYA FANIDAN IMTIHON
DASTURI VA BAHOLASH MEZONI
(ta'lim yo'nalishlarga mos fan bo'yicha)**

Tuzuvchilar:

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti ijtimoiy fanlar fakulteti dekani, professor, D.Muxamedova

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti "Psixologiya" kafedrası professori A.Rasulov

Taqrizchilar:

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti ijtimoiy fanlar fakulteti "Psixologiya" kafedrası professori D.Arzikulov

O'zbekiston pedagogika milliy universiteti dotsenti L.Tursunov.

Mazkur dastur Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti O'quv-uslubiy Kengashining 2026-yil __ - ____dagi __-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

KIRISH

Umumiy psixologiya fani bo'yicha ikkinchi va undan keyingi oliy ta'lim bo'yicha bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga kiruvchi abituriyentlar uchun tuzilgan imtihon dasturi oliy ta'lim muassasalari "Umumiy psixologiya" fani dasturi asosida tuzilgan bo'lib, fanlarining ijodiy imtihon dasturi "Umumiy psixologiya" fanining tarkibiy bo'limlari. "Psixikaning evolution tarqiqiyoti", "Shaxs psixologiyasi", "Temperament va xarakter", "Ehtiyoj.Motiv va motivatsiya", "Emotsiya va iroda", "Sezgi va idrok", "Diqqat va xotira", "Tafakkur va nutq" (kognitiv) bo'yicha abituriyentlarning ko'nikma va malakalarini aniqlashda foydalaniladi.

«Psixologiya» ta'lim yo'nalishida mutaxassislar tayyorlash bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar abituriyentlarning psixologiya ta'lim sohasida nazariy bilimlarini amaliyotga qo'llay olishi bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Fanning maqsadi va vazifalari:

Umumiy psixologiya fani bo'yicha tuzilgan ushbu dastur abituriyentlarning shu sohada bo'lgan qiziqishi, bilim darajasini belgilash maqsadida ishlab chiqilgan.

Mazkur dasturning asosiy vazifasi psixologiya fanining asosiy tushuncha va qonunlari, tamoyillari, psixologiyaning tarmoqlari, tadqiqot usullari, psixologiya tarmoqlari, psixikaning evolution tarqiqiyoti, shaxs psixologiyasi, ehtiyoj, motiv, motivatsiya, iroda, sezgi, idrok, diqqat va xotira, tafakkur, nutq bo'limlari asosida tuzilgan bo'lib umumiy psixologiya fanini o'zlashtirishni taqozo etadi.

Imtihonda abituriyentlar, avvalo, umumiy psixologiya fanining inson hayotida tutgan o'rni, ahamiyati, insonning o'ziga, jamiyatga va atrof-olamga munosabatini shakllantirish asosida insonning o'rnishi, buguni va kelajagi to'g'risidagi tasavvurlarini boyitishini va mantiqiy fikr-mulohaza yuritishlari talab etiladi.

Abituriyentning bilimiga qo'yiladigan talablar:

Umumiy psixologiya fanining 2026/2027 o'quv yili imtihon (subbat) dasturi bo'yicha. "Psixikaning evolution tarqiqiyoti", "Shaxs psixologiyasi", "Temperament va xarakter", "Ehtiyoj.Motiv va motivatsiya", "Emotsiya va iroda", "Sezgi va idrok", "Diqqat va xotira", "Tafakkur va nutq" (kognitiv) bo'limlarining har biriga talablar qo'yiladi:

"Psixikaning evolution tarqiqiyoti" bo'limini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida abituriyent:

- Psixologiya fan sifatida.Psixologiya kasb sifatida. Psixologiya tarmoqlari va psixolog kasbiy faoliyati.Psixolog kasbiy faoliyati va psixologiya metodlari. Psixolog faoliyatini nazorat qiluvchi ahloqiy me'yorlari va etik tamoyillar

Psixikaning evolyutsiyasi va vujudga kelishi. Shaxsni evolyutsion jihatdan rivojlanishi. Inson psixikasini ontogeneza rivojlanishi. Psixik jarayonlar va miyaning o'zaro aloqadorligi. Harakat inson faoliyatning birligi sifatida. Xatti-harakat qurilmalari.

“Shaxs psixologiyasi” bo‘limini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida abituriyent:

Shaxs tushunchasi. Individ, individuallik va faoliyat sub’ekti tushunchalari. Shaxs tuzilmasi. Shaxsni o‘rganishga doir nazariy yondashuvlar. Shaxs taraqqiyotini davriylashtirish. Shaxsning sotsiallashtirish, Shaxsning o‘zini o‘zi anglashi.

“Temperament, xarakter va qobiliyatlar” bo‘limini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida abituriyent:

Temperament tushunchasi. Temperament tiplari. Temperament tiplari va asab tizimi. Sangivinik, xolerik, flegmatik va melaxonlikka xos xususiyatlari. Xarakter tushunchasi. Xarakter xususiyatlari. Xarakterning shakllanishi. Qobiliyatlar haqida tushuncha. Qobiliyat turlari.

“Ehtiyoj, motiv va motivatsiya” bo‘limini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida abituriyent:

Ehtiyoj-insonni harakatga keltiruvchi kuch. Ehtiyoj turlari. Motiv tushunchasi. Motiv turlari. Motivatsiya. Motivatsiya turlari.

“Emotsiya va iroda” bo‘limini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida abituriyent:

Emotsiya haqida tushuncha. Emotsional holatlar, jarayonlar va xususiyatlar. Emotsional boshqaruv. Kayfiyat, stress, affekt. Emotsiya va uni boshqarish. Iroda haqida tushuncha. Irodaviy sifatlar.

“Sezgi va idrok” bo‘limini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida abituriyent:

Sezgi va idrok: umumiy tasavvurlar, yondoshuvlar. Sezgilar klassifikatsiyasi va sezgilarning o‘zgaruvchan shakllari. Yetakchi analizatorlarga ko‘ra sensor-pertseptiv jarayonlar turlari. Teri tuyush sezgisi va idroki. Ko‘rish sezgisi va idroki. Ko‘rish analizatorining tuzilishi. Eshitish sezgisi va idroki. Ta‘m bilish idroki. Hid bilish. Xidlar va ularning o‘ziga xosligi. Idrok. Idrokning sezgidan afzalligi, uni genetik bog‘liqligi. Idrok turlari: ko‘rish, eshitish, sezish. Obrazlarni idrok qilishning o‘ziga xosligi: predmetlilik, yaxlitlik, konstantlik, kategoriallik. Idrokning murakkab turlari.

“Diqqat va xotira” bo‘limini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida abituriyent:

Diqqat: tushuncha, psixofiziologik indikatorlari va mexanizmlari. Diqqatning funktsiyalari, turlari, asosiy xususiyatlari. Ixtiyorsiz diqqat, ixtiyoriy diqqat va ixtiyoriy diqqatdan keyingi diqqat. Diqqatning rivojlanishi va buzilishi. Xotira haqida umumiy tushuncha. Xotira – o‘tmish tajribalarni esga olib qolish, esga saqlash va unutishdan ibora jarayon sifatida. Xotira bilan bog‘liq hodisalar. Xotira jarayonlari va turlari. Xotira jarayonlari. Esda olib qolish. Esda saqlash. Esga tushirish. Tanish. Unutish. Materialning xarakteri (hajmi, bir xilligi, ma’noga egaligi). Mashqlantirishning o‘rni. Xotira turlari klassifikatsiyasi. Genetik, hayotiy, ixtiyorsiz, ixtiyoriy xotira. Lahzali, sensor (ikonik, exoik) qisqa muddatli, uzoq muddatli, operativ va oraliq xotira. Obrazli xotira. Eydetik xotira. Emotsional

xotira. Soʻz-mantiq xotirasi. Kognitiv va shaxslilik xotirasi. Protседurnaya i deklarativnaya pamyat. Xotiraning individual psixologik xususiyatlari.

“Tafakkur va nutq” boʻlimi oʻzlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida abituriyent:

Tafakkurning umumiy xarakteristikasi. Tafakkur turlari: koʻrgazmali-harakat tafakkuri, koʻrgazmali-obrazli tafakkur, soʻz-mantiq tafakkuri, ixtiyorsiz tafakkur. Ixtiyoriy tafakkur. Tafakkur operatsiyalari, analiz, sintez, abstraksiyalash, taqqoslash, umumlashtirish, klassifikatsiyalash, sistemalashtirish. Tafakkur shakllari: tushuncha, hukm, xulosa chiqarish. Nutqiy tafakkur rivojlanish muammolari. Nutq. Nutq va til. Nutq turlari. Til va nutqning rivojlanishi *bilish kerak*.

Imtihon natijalarini baholash mezonlari

Imtihon suhbat shaklida oʻtkaziladi hamda suhbat natijasi oʻtdi yoki oʻtmadi shaklida baholanadi.

Imtihon komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Imtihon komissiyasi faoliyati 2026/2027 oʻquv yili qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Umumiy psixologiya fanidan sinovlar mavjud barcha turdagi taʼlim yoʻnalishlar boʻyicha imtihon komissiyasi tarkibi odatda besh nafar aʼzodan kam boʻlmagan holda tashkil etiladi.

Imtihon natijalari uch kun muddatdan kechiktirilmagan holda eʼlon qilinadi.

Umumiy psixologiya fanidan sinovlar mavjud barcha turdagi taʼlim yoʻnalishlar boʻyicha imtihon natijalaridan norozi abituriyentlarning murojaatlarini koʻrib chiqish boʻyicha appellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Appellyatsiya komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Appellyatsiya komissiyasi imtihonni oʻtkazgan oliy taʼlim muassasasi qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Abituriyent imtihon natijalari eʼlon qilingan vaqtdan boshlab, 24 soat ichida appellyatsiya komissiyasiga ogʻzaki yoki yozma shaklda murojaat etishi shart. Belgilangan muddatdan keyin murojaatlar qabul qilinmaydi.

Appellyatsiya komissiyasi abituriyentning faqat oʻzining ishi boʻyicha bildirilgan murojaatini yuzma-yuz abituriyentning ishtirokida koʻrib chiqadi va yakuniy qarorni beradi.

Qabul komissiyasi masʼul kotibi


Z. Raxmonov

UMUMIY PSIXOLOGIYA FANIDAN SAVOLLAR

1. Psixologiya fanining predmeti, maqsadi va asosiy vazifalari nimalardan iborat?
2. Psixologiya fan sifatida qanday shakllangan va uning inson hayotidagi ahamiyati nimada?
3. Psixologiya kasb sifatida qanday mazmun va xususiyatlarga ega?
4. Psixologiyani asosiy tarmoqlarini sanab bering va ularning vazifalarini tushuntiring.
5. Psixolog kasbiy faoliyatida qanday asosiy vazifalarni bajaradi?
6. Psixologik tadqiqotlarda qo'llaniladigan asosiy metodlarni izohlang.
7. Psixolog faoliyatini tartibga soluvchi asosiy axloqiy me'yorlar va etik tamoyillar nimalardan iborat?
8. Psixika tushunchasi nimani anglatadi va uning asosiy xususiyatlari qanday?
9. Psixikaning evolyutsion taraqqiyoti deganda nima tushuniladi?
10. Psixikaning vujudga kelishi va rivojlanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatgan?
11. Shaxsning evolyutsion jihatdan rivojlanishini qanday izohlash mumkin?
12. Inson psixikasining ontogenezda rivojlanishi qanday kechadi?
13. Psixik jarayonlar va miyaning o'zaro aloqadorligini tushuntiring.
14. Harakat inson faoliyatining birligi sifatida qanday ahamiyatga ega?
15. Xatti-harakat qurilmalari tushunchasi nimani anglatadi?
16. Psixika va xatti-harakat o'rtasidagi munosabat qanday?
17. Psixik rivojlanishning biologik va ijtimoiy omillari qanday farqlanadi?
18. Psixikaning evolyutsion taraqqiyotida faoliyatning o'rni qanday?
19. Inson psixikasining hayvonlar psixikasidan asosiy farqlari nimalarda namoyon bo'ladi?
20. Psixikaning rivojlanishida muhit va faoliyatning o'zaro ta'siri qanday?
21. Shaxs tushunchasiga psixologik nuqtayi nazardan ta'rif bering.
22. Individ tushunchasi nimani anglatadi?
23. Individ va shaxs tushunchalari o'rtasidagi farq nimada?
24. Individuallik tushunchasini izohlang.
25. Faoliyat sub'ekti tushunchasi nimani anglatadi?
26. Individ, shaxs, individuallik va faoliyat sub'ekti tushunchalarini o'zaro taqqoslang.
27. Shaxs tuzilmasi qanday tarkibiy qismlardan iborat?
28. Shaxsni o'rganishga doir asosiy nazariy yondashuvlarni tushuntiring.
29. Shaxs taraqqiyotini davriylashtirish deganda nima tushuniladi?
30. Shaxs rivojlanishining asosiy davrlarini psixologik jihatdan tavsiflang.
31. Shaxsning sotsiallasuvi nima va u qanday jarayon orqali amalga oshadi?
32. Shaxs sotsiallasuvida oila va ijtimoiy muhitning roli qanday?
33. Shaxsning o'zini o'zi anglashi tushunchasini izohlang.
34. O'zini o'zi anglash shaxs taraqqiyotiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
35. Shaxs shakllanishida faoliyat va muloqotning o'rni qanday?
36. Shaxsning individual va ijtimoiy xususiyatlari qanday namoyon bo'ladi?
37. Temperament tushunchasi nimani anglatadi?

38. Temperamentning asosiy turlarini sanab bering.
39. Temperament tiplari va asab tizimi o'rtasidagi bog'liqlik qanday?
40. Sangvinik temperamentga xos asosiy xususiyatlarni tushuntiring.
41. Xolerik temperamentga xos asosiy xususiyatlarni tushuntiring.
42. Flegmatik temperamentga xos asosiy xususiyatlarni tushuntiring.
43. Melanxolik temperamentga xos asosiy xususiyatlarni tushuntiring.
44. Temperament turlarini o'zaro taqqoslang.
45. Xarakter tushunchasiga ta'rif bering.
46. Xarakterning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
47. Xarakter qanday shakllanadi?
48. Temperament va xarakter o'rtasidagi asosiy farqlar nimada?
49. Qobiliyatlar haqida tushuncha bering.
50. Qobiliyatlarning asosiy turlarini tushuntiring.
51. Ehtiyoj tushunchasi nimani anglatadi?
52. Ehtiyoj insonni harakatga keltiruvchi kuch sifatida qanday namoyon bo'ladi?
53. Ehtiyojlarning asosiy turlarini sanab bering va izohlang.
54. Motiv tushunchasiga ta'rif bering.
55. Motivlarning asosiy turlari qanday?
56. Motiv va ehtiyoj o'rtasidagi bog'liqlik qanday?
57. Motivatsiya tushunchasi nimani anglatadi?
58. Motivatsiyaning asosiy turlarini tushuntiring.
59. Ehtiyoj, motiv va motivatsiya o'rtasidagi munosabatni izohlang.
60. Emotsiya tushunchasi nimani anglatadi?
61. Emotsional holatlar qanday xususiyatlarga ega?
62. Emotsional jarayonlar deganda nima tushuniladi?
63. Emotsional boshqaruv nima?
64. Kayfiyat tushunchasini izohlang va uning xususiyatlarini ayting.
65. Stress nima va u inson psixikasiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
66. Affekt tushunchasi nimani anglatadi?
67. Kayfiyat, stress va affektni o'zaro taqqoslang.
68. Emotsiyalarni boshqarishning psixologik ahamiyati nimada?
69. Iroda tushunchasiga ta'rif bering.
70. Irodaviy sifatlar nimalardan iborat?
71. Iroda va emotsiya o'rtasidagi munosabat qanday?
72. Sezgi va idrok tushunchalariga umumiy tavsif bering.
73. Sezgilarning asosiy klassifikatsiyasi qanday?
74. Sezgilarning o'zgaruvchan shakllari deganda nima tushuniladi?
75. Yetakchi analizatorlarga ko'ra sensor-pertseptiv jarayonlar qanday turlarga bo'linadi?
76. Teri tuyush sezgisi va idrokining xususiyatlari qanday?
77. Ko'rish sezgisi va idrokining asosiy xususiyatlarini tushuntiring.
78. Ko'rish analizatorining tuzilishi va faoliyatini izohlang.
79. Eshitish sezgisi va idroki qanday amalga oshadi?
80. Ta'm bilish idrokining psixologik xususiyatlari qanday?

81. Hid bilish sezgisi va hidlarning o'ziga xosligi nimada?
82. Idrokning sezgidan asosiy farqi nimada?
83. Idrokning sezgi bilan genetik bog'liqligini tushuntiring.
84. Idrokning asosiy turlarini sanab bering.
85. Idrok obrazlarining predmetlilik, yaxlitlik, konstantlik va kategoriallik xususiyatlarini tushuntiring.
86. Idrokning murakkab turlari qanday namoyon bo'ladi?
87. Diqqat tushunchasi va uning psixofiziologik indikatorlari nimalardan iborat?
88. Diqqatning asosiy mexanizmlari va funksiyalari qanday?
89. Diqqatning asosiy turlarini sanab bering.
90. Ixtiyorsiz diqqat va ixtiyoriy diqqat o'rtasidagi farq nimada?
91. Ixtiyoriy diqqatdan keyingi diqqat nima?
92. Diqqatning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
93. Diqqatning rivojlanishi qanday kechadi?
94. Diqqat buzilishlari qanday ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin?
95. Xotira haqida umumiy tushuncha bering.
96. Xotira o'tmish tajribani esga olib qolish, saqlash va unutish jarayoni sifatida qanday namoyon bo'ladi?
97. Xotiraning asosiy jarayonlarini sanab bering.
98. Esda olib qolish, esda saqlash va esga tushirish jarayonlarini tushuntiring.
99. Tanish va esga tushirish jarayonlari o'rtasidagi farq nimada?
100. Unutish jarayoni nima va unga qanday omillar ta'sir qiladi?